

TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR

II son, Yanvar

ESHQOBIL SHUKUR LIRIKASINING O'ZIGA XOSLIGI HAMDA SHE'R VA SHOIR ORASIDA RUHIY BOG'LIQLIK,INSONIY KECHINMALARINING IFODALANISHI

Qo'yliboyeva Hulkaroy Umidjon qizi

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili

va adabiyoti universiteti 1-bosqich talabasi

hulkaroyqoyliboyeva@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada Eshqobil Shukur she'riyati hamda shoir undagi obrazlarning ichki dunyosini qay tarzda ifodalay olganligi ayrim namunalar orqali badiiy tahlil qilingan. Shoir she'rlarining bugungi kundagi ahamiyati va uning ijodiy yondashuvi haqida fikrlar keltirilgan.

Kalit sozlar: lirk tasvir, shoir mahorati,badiiy so'z talqini,taqqoslash,ruhiy kechinma,millatga murojaat,she'rlar tahlili.

Yuksak iste'dod egasi Eshqobil Shukur o'zbek she'riyati va uning rivojiga muayyan hissa qo'shgan adiblardan biridir.U necha yillardan buyon milliy she'riyatimizni boyitib,o'zining salmoqli misralari bilan ko'ngillardan joy olishga ulgurgan. Shoir o'zining she'rlaridagi kayfiyatini doimo o'quvchiga singdira olgan.Uning ijodi o'tgan asrning 80-yillaridan boshlanib,"Qadimgi bitiktoshlarga yozuvlar","Mengim momoning yo'qlovi" singari dastlabki she'rlari bilan tilga tushdi.Keyinchalik, serqirra ijodkor 2016-yilda Turkiyaning Istanbul shahrida bo'lib o'tgan turkiy tillar adiblar anjumanida "Turkiy tillar sharafi"mukafotiga hamda XIV Turkiy xalqlar she'riyat festivalida"Qaldirg'och"she'ri uchun Baxtiyor Vahobzoda nomidagi bosh mukofotga sazovor bo'ldi.Uning she'rlari chuqur majoziy ma'noga ega ekanligi, ayni chog'da sodda, ravon tilda ifodalishi, ba'zan esa xalqona, baxshiyona bayon uslubi shoir she'riyatini o'z o'quvchisi bilan mustahkam bog'laydi. Buning ustiga shoir she'riyatida qadimiy unutilgan musiqiy ohanglar yangidan jonlanib, asarlariga yangicha ma'no, yangicha fayz ham bag'ishlaydi. Ba'zida esa fojeaviy ohanglar eshitiladi. Eshqobil Shukur she'riyati o'zining majoziy ranglar, musiqiy ohanglarga limmo-limligi va qadimiy bitiklar asosiga yo'g'rilganligi bilan ajraladi. Shoirning dastlabki she'rlaridayoq majoziy obrazlar va xalq she'riyatiga hamohang bo'lgan musiqiy sadolar eshitilib turgan.

Insonni,uning ma'naviy olamini kashf etadigan yana bir qudratli vosita borki,u ham bo'lса,so'z san'ati,badiiy adabiyotdir.Adabiyotning insonshunoslik deb,shoir va yozuvchilarining esa inson ruhiyatining muhandislari,deb ta'riflanishi bejiz emas,albatta.

Xalqimiz orasidan mana shu g'oyat mashaqqatli sohaga butun hayoti va noyob iste'dodini bag'ishlab,adabiyotimiz xazinasidan munosib o'rin egallagan o'lmas asarlar yaratgan buyuk so'z san'atkoriulari-ularni barchasining nomlarini zikr etish,albatta,ko'p vaqtini talab qilgan bo'lur edi-yetishib chiqqani bilan barchamiz haqli ravishda faxrlanamiz.

TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR

II son, Yanvar

Adabiyot,so'z san'ati azaldan xalq qalbining ifodachisi,haqiqat vaadolat jarchisi bo'lib keladi.U xoh yozuvchi bo'lsin,xoh shoir.Ba'zi she'rlar to'g'ridan to'g'ri qalbga kirib boradi.

Ayrimlar she'rni tahlil qilishni uni o'ldirish bilan taqqoslashadi,lekin men shoir she'rlari badiiy tahlilga muhtoj deb hisoblayman.O'ylashimcha,shoirning she'rlari qachonki tushunilishi qiyin bo'lsa,u haqiqiy shoir.Chunki u o'quvchini o'ylashga,fikr yuritishga majbur qiladi.Negaki,bu kabi she'rlar bir o'qiganda hazm bo'lavermaydi.Agar insonning qulog'i yengil-yelpi,tumtaroq ohanglarga o'rganib qolsa,bora-bora uning badiiy didi va musiqa madaniyatni pasayib ketishi,uning ma'naviy olamini soxta tushunchalar egallab olishi hech gap emas.Ammo shoir Eshqobil Shukurov har misra ma'nosiga jiddiy e'tibor qaratgan.Buning isboti sifatida uning"1943-yil.Urushdan xat keldi"she'rini tahlil qilmoqchiman.

Harf tanimas edi bu ayol...

Savod chiqarmagan,maktab ko'rmagan.

Birinchi misraning o'zidayoq shoirning mahoratiga qoyil qolamiz.Sababi,bir gap orqali o'zbek ayolining o'sha davrdagi ijtimoiy hayotini to'la aks ettira olgan.Uning ustoz ko'rmaganligi,savodi yo'qligi bu davr uchun oddiy hol

Xatni o'g'ilchasi unga tutqazdi...

Pochtachi kelganda uyda bo'limgan.

Erkaklar urushga ketganlaridan so'ng,turmushning barcha og'ir-yengili ayol kishining zimmasida bo'lgan.Qolaversa,frontga oziq-ovqat,kiyim-kechak yetkazib berish zarur.Ayollar esa asosiy ishchi kuch edi.Qishloq xo'jaligi,sanoat va iqtisodiyotning boshqa barcha sohalarda o'zbekistonlik ayollarning mehnati yetakchi o'ringa chiqdi.Bu davrda ko'plab nafaqadagi ayollar ham o'z ishlariga qaytib kelib,mehnat qilganlar.Statistik ma'lumotlarga e'tibor beradigan bo'lsak,1942-yilning oxirlariga borib,sanoat ishchilarining 63,5 foizi,qishloq xo'jaligi vakillarining 65 foizini xotin-qizlar tashkil qilgan edi.Bu davrda ayollarimizga ham bola tarbiyasi,ham oila tashvishi tushgan edi.Shuning uchun ham U uyda bo'limgan...

Titroq qo'llarida bir enlik qog'oz,

Oq qaldirg'och kabi potirlar edi.

Ayolning labida duoi-salom

Jon shamoli kabi shitirlar edi.

"Jon shamoli"satriga e'tibor beramiz.1943-yil...Ayni urush pallasi.Tarixning eng mudhish sahifalaridan biri bo'lgan ikkinchi jahon urushi yillari o'zining ayanchli voqeliklari va oqibatlari bilan insoniyat jamiyatni xotirasidan hech qachon o'chmaydigan davrlardan biri edi.Kimdir yolg'iz o'g'lidan,yana kimdir suyukli yoridan xat-xabar kutmoqda.Urushda esa omonlik yo'q."Jon shamoli" esa uning yo o'likligi yo tirikligini yetkazadi.Bundan tashqari,ayolning qalbini oq qaldirg'ochga o'xshatishi ham beziz emas.Majoz,timsol,o'xshatishlar she'rga go'zallik baxsh etadi.Bu kabi badiiy vositalar she'r tarkibiga tobora singib bormoqda.Shunday holler bo'ladiki,majoz,tashbehlarga ortiqcha oshuftalik uni she'rning umumiyligi ruhidan yiroqlashtirib qo'yadi.Sher aynan shulardan foydalanish uchungina

TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR

II son, Yanvar

yozilganga o'xshaydi.Eshqobil Shukr ijodida esa bularning mutlaqo aksi. Ochiq aytal olamanki,Eshqobil Shukur she'rlariga xos yana bir fazilat-ravonlik,ohangdorlik,musiqiylik.So'zlarni to'g'ri-zargarona aniqlik bilan foydalanish.

Keyingi misralarga e'tibor bersak,vaziyat yanada jadallahadi:

**Xatmi bu, xatmmi,yo xatmi hayot,
Qog'ozga aylanib borardi Ayol.
Jonajon harflarni o'qishni istab,
Bir parcha xat uzra qaddi, ruhi dol.**

Shoir mahorati har misrada o'zini isbotlaydi.Uning badiiy so'z san'atidan unumli foydalana olganligi ham muhim ahamiyat kasb etgan.Bilamizki,lirkada arab harflaridan foydalansila,kitobat san'ati hisoblanadi.Eshqobil Shukurov ham „dol” harfi orqali ayolning ham ruhiy,ham jismoniy holatini ifodalashga harakat qilgan.

Yuqorida misralar orqali esa shoirning tashbeh,tashxis kabi san'atlardan unumli foydalanganligi va u she'r mazmuniga ijobiy ta'sir qilganligining ham guvohi bo'ldik.

**Harf tanimas edi bu Ayol...
Lekin sirlar bordir,muhabbatga xos.
O'sha kun eridan kelgan xatni u
Harfma-harf,so'zma-so'z o'qigani rost.**

Inson o'z his-tuyg'ulari bilan tirik.Sadoqat,sevgi va muhabbat hech qachon o'lmaydi.O'yashimcha,Eshqobil Shukurov bunday go'zal narsalar kishining tashqi tabiatdan ham oldin,avvalo,uning ichki tabiatida sodir bo'lishini bilish qobiliyatiga ega.Buni shoirning so'nggi misrasi orqali bilib olishimiz mumkin.

Ijodkor Eshqobil Shukur o'zining so'z qo'llash mahorati bilan ona tilimizning estetik jilosini,naqadar boy til ekanligini ochib bergan ijodkorlardan biri sanaladi.Uning she'rlari yurakka tez va chuqur kirib boradi.Eshqobil Shukr she'rlarida uchraydigan o'ziga xos o'xshatishlar ,poetik aktuallashgan leksik birliklar ,tasviriy vositalar tahlil qilinganida ijodkorning til imkoniyatlaridan ajoyib tarzda foydalanganligining guvohi bo'lamiz.Har bir ijodkor qo'liga qalam olib,ijodini boshlar ekan,o'z g'oyasini o'quvchiga yetkazish, badiiy ifodani quyuqlashtirish,uni his-hayajon bilan boyitish uchun,albatta,so'z boyligiga tayanadi.Eshqobil Shukur ham xuddi shunday har bir so'z shakl-shamoyili,salmog'i va ohangini hisobga olib,tasviriy vositalar yordamida narsa-hodisalarining ba'zi bir tomonlari,alohida belgilarini aniq va qisqa xarakterlab berishga qodir ijodkordir.

Xulosa qilishim mumkinki,shoir she'rlari inson ruhiyati bilan bevosita bog'liq.U til bilan ifoda qilib bo'lmaydigan hissiy jarayonlarni qog'ozga mahorat bilan tushira olgan.

TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR

II son, Yanvar

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.I.A.Karimov.Yuksak ma'naviyat -yengilmas kuch.Toshkent:Ma'naviyat,2016. 136-bet
- 2.<https://www.academy.uz/uz/page/pdf/ikkinchi-jahon-urushi-sahifalaridan-front-ortidagi-ozbekistonlik-ayollar>
- 3.<https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/matbuot/hozirgi-davr-matbuoti/eshqobil-shukur-she-rda-ustoz-vijdondir-faqat-2009>